

**N. MAMADINOVA  
M. AHMEDOVA**

# **ATROFIMIZDAGI OLAM**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
1-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Toshkent  
«O'zbekiston»  
2016

**Mas'ul muharrir:**

*Nigmatov Asqar* — Geografiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

*Alimqulov N.* — Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasи mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

*Sharipov Sh. M.* — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geografiya kafedrasи dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.

*Azizova N. Q.* — Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 144-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

*Xo'jayeva M. I.* — Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.



Darslikdagi matnlар o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'quvchilarga o'qib berish uchun mo'ljallangan. O'quvchilar o'qishni o'rganganlaridan so'ng mustaqil ravishda mavzularni takrorlashda foydalanishlari mumkin.

**Shartli belgilar:**

— Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar  
(*o'qituvchi tomonidan o'qib, tushuntiriladi*)



— O'qituvchi tomonidan o'qib beriladigan va tushuntiriladigan matn



— Ota-ona yoki boshqa kattalar bilan birgalikda uyda bajariladigan topshiriq



— Topishmoq (*topishmoq matni o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi*)



— O'quvchi tomonidan o'qiladigan matn



— Dars tugadi

**«Davlat budget mablag'lari hisobidan chop etildi»**

© N. Mamadinova, M. Ahmedova, 2016

© «Huquq va Jamiyat», 2016

© «O'zbekiston» NMIU, 2016

# MUNDARIJA

1. BIZNING MAKTAB .....	6
2. BIZNING SINF .....	8
3. BIZNING MAHALLA .....	10
4. KO'CHADA YURISH QOIDALARI .....	12
5. O'QUVCHINING KUN TARTIBI .....	14
6. SHAXSIY GIGIYENA .....	15
7. QUYOSH. OB-HAVO .....	16
8. YIL FASLLARI .....	18
9. KUZ. O'SIMLIKLARNING KUZGI HAYOTI .....	20
10. KISHILARNING KUZDAGI MEHNATI .....	21
11. O'SIMLIKLER DUNYOSI .....	22
12. O'SIMLIK QISMLARI VA ULARNING O'SISHI .....	24
13. GULLAR .....	26
14. BIZNING BOG' .....	27
15. UY HAYVONLARI VA PARRANDALARI .....	28
16. YOVVOYI HAYVONLAR .....	30
17. QUSHLAR .....	32
18. HASHAROTLAR .....	34
19. QISH. YANGI YIL BAYRAMI .....	36
20. BIZ FOYDALANADIGAN NARSALAR .....	38
21. BIZNING UY. OSHXONA .....	40
22. GAZ VA ELEKTR JIHOZLARI .....	42
23. KOMPYUTER .....	44
24. BIZNING O'LKAMIZ — O'ZBEKISTON .....	46
25. SUV .....	48
26. BAHOR. KISHILARNING BAHORDAGI MEHNATI .....	50
27. NAVRO'Z .....	52
28. MENING SHAHRIM (QISHLOG'IM) .....	54
29. TABIAT VA BIZ .....	56
30. YASHIL DORIXONA .....	58
31. YOZ .....	60
32. KISHILARNING YOZDAGI MEHNATI .....	62





## BIZNING MAKTAB



1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Ular qayerda va nima bilan mashg'ul?



1. Rasmlarda qaysi darslar tasvirlangan?
2. Ular qayerda o'tkaziladi?



Rasmdagilar qaysi darslarga oid?



Rasmlardagi odamlar qayerda va nima bilan mashg'ul?



4–5-betlardagi rasmdan maktabni ko'rsating va u haqida fikr yuriting.



1. Quyidagi rasmlarda nimalar tasvirlangan?
2. Ulardan qayerda va nima maqsadda foydalilanildi?



## BIZNING SINF




Rasmdagi sindf xonasi va dars jarayonini tavsiflang.



Qaysi o'quvchilar qanday nojo'ya harakat qilyaptilar?



Rasmdagi bolalar nima qilmoqda?  
Sinf xonasini shamollatish zarurligi  
sababini tushuntiring.



### Bular to'g'ri

### Bular noto'g'ri



Quyidagi holatlarga munosabatingizni bildiring.



1



2




## BIZNING MAHALLA



Sizning mahallangizda bu joylardan qaysilari mavjud? U joylarda nimalar bilan shug'ullaniladi?

Bu joylar nima uchun kerak?





1. Rasmdagi kishilar nima bilan mashg'ul?
2. Siz o'z manzilingizni bilasizmi?

Rasmlarda mahallaning qaysi joylari tasvirlangan?



## KO'CHADA YURISH QOIDALARI



Akmal bilan Sohiba nega to'xtab turibdi?




Akmal bilan Sohiba nega yo'lini kesib o'ta boshladilar?



4–5-betlardagi rasmdan: ko'chalarni, chorrahalarni, piyodalar yo'laklarini, piyodalar o'tish joylarini, svetoforlarni ko'rsating. Transport vositalarining nomlarini ayting.




E'tiborsiz bo'lsa kim,  
Ko'zlarimga deydi boq.  
Yo'l ko'rsatar hammaga,  
Doimo uchta o'rtoq.



Svetofor chiroqlari «nima deydi»?



Ko'chani piyodalar uchun maxsus ajratilgan joydan o'tish mumkin.



Yo'ldan bu tariqa  
o'tish mumkin.

Bu tariqa o'tish  
mumkin emas.



Rasmlardagi munosabatingizni holatlarga o'z bildiring.



## O'QUVCHINING KUN TARTIBI



Rasmlarda o'quvchi kun tartibining ertalabki qismi berilgan. Uning qolgan qismini davom ettiring.



Kun tartibini ifodalovchi rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.



## SHAXSIY GIGIYENA



Akmal ushbu mashg'ulotlar bilan kunning qaysi qismida shug'ullanadi?



Qizlar xatti-harakatlarini izohlang.



Har uyga bor keragim,  
Urib tursa yuragim.



Rasmlarga munosabatingizni bildiring.

1



2



3



4



## QUYOSH. OB-HAVO





Rasmlar asosida quyoshning ob-havoga ta'siri haqida fikr bildiring.



Sharqdan chiqar tong chog'i,  
G'arbda uning yotog'i.



Do'l va jalaning xavfi nimada deb  
o'ylaysiz?



Rasmlardagi ona va bolaning turlicha kiyunganligining sababi nimada? O'ng tomondagi rasmlarda kunning qaysi qismlari tasvirlangan?



Soyalarga qarab quyosh qaysi tomonda ekanligini ayting.



1



2



3




4



Ota-onangizdan rasmlardagi tabiat hodisalari haqida ma'lumot oling.



## YIL FASLLARI



- 1. Har bir faslni alohida tavsiflang.
- 2. Siz qaysi faslda ko'proq qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz?





G'ir-g'ir esar, o'zi yo'q,  
Bir sir kezar, izi yo'q.





## KUZ. O'SIMLIKLARNING KUZGI HAYOTI




Kuzda mevalar pishib yetiladi. So'ng ularning barglari sarg'ayib to'kiladi. Dalalarda paxta, sabzavot va poliz ekinlari pishadi. Dalalarda kuzgi don ekinlari ekiladi.



Xurmo daraxtining qaysi rasmi kuzga oid?



## KISHILARNING KUZDAGI MEHNATI



Kuzda ochilgan paxta terib olinadi.  
Bog'lardagi mevalar g'arq pishadi.  
Dalalardagi hosil yig'ib olinadi. Ekin  
maydonlari haydaladi. Bozor rastalari  
noz-ne'matlar bilan to'ladi.



## O'SIMLIKLER DUNYOSI



O'simliklar dunyosi daraxt, buta va o't-o'lanlardan iboratdir.

Kishilar bog'larda, dalalarda yoki tomorqalarida o'stiradigan o'simliklar madaniy o'simliklar deyiladi.

O'rmon, dala-dasht, cho'l, qir va adirlarda kishilar ishtirokisiz o'sadigan o'simliklar yovvoyi o'simliklar deb ataladi.

Daraxtlar



terak



qayrag'och



eman




kashtan

Butalar




qizil



nastarin



saksovul



na'matak

O't-o'lanlar



rayhon




ajriq



yantoq




qamish



Rasmdagilardan daraxt, buta va o't-o'lanlarni ajratib ko'rsating.

Daraxtlarning barglarini eslab qoling:




1. Daraxt, buta, o't-o'lanlarni ajrating.
2. Ularning qaysilari madaniy o'simliklar deyiladi?



## O'SIMLIK QISMLARI VA ULARNING O'SISHI



Aksariyat o'simliklarning ildizi, shoxi, poyasi, bargi, guli va mevasi bo'ladi.




Rasmlardagi shoxi, bargi, guli va mevasini ko'rsating.







## Rasmlarni izohlang.



Qizil, sariq qoziqlarim,  
Bizga ular oziqlarim.






O'simliklar ildizlarining xilma-xilligi.



1. Sabzavotlarning nomlarini ayting.
2. Siz yana qanday ildizmevali sabzavotlarni bilasiz?



Rasmlarda nimalar tasvirlangan?



## GULLAR



Gullar xonada, bog'da, tomorqada, hovlida o'stililadi. O'lkamizda rayhon, atirgul, chinnigul, gulsapsar, lola, boychechak, moychechak gullari keng tarqalgan.



Gullarning nomlarini ayting. Ular qayerda o'sadi?



Xona gullari parvarishiga katta e'tibor berish kerak.



1. Rasmlardagi gullarning nomlarini ayting.
2. Ularning qaysilari madaniy?



## BIZNING BOĞ'



Bog'imizda har xil mevali daraxtlar bor. Oilamiz a'zolari bahordan kech kuzgacha daraxtlarni avaylab parvarish qiladilar. Shuning uchun ham bog'imizdagi daraxtlar serhosil. Biz bog'dagi ishlarda kattalarga yordamlashamiz. Shirin olma, nok va behilarni yeganimizda mehnatimiz zoye ketmaganini his qilamiz.



Mevalarning nomlarini ayting.




Bizning o'lkamizda yetishtiriladigan va yetishtirilmaydigan mevalarning nomlarini yozing.



## UY HAYVONLARI VA PARRANDALARI



Uy hayvonlari va parrandalari kishilarning hovlilarida va fermalarida yashaydi. Kishilar ularni boqadi. Uy hayvonlari kishilar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni beradi.



Sigirdan teri, go'sht va sut olinadi.





Qo'ydan teri, go'sht, yog' va jun olinadi.

Tovuqdan esa go'sht, tuxum va par olinadi.



Uy hayvonlari va parrandalarining nomlarini ayting. Ularni kishilar nima maqsadda boqadilar?






1. Uy hayvonlarini ko'rsating.  
2. Hovlidagi kishilar nima bilan mashg'ul?



Yerda yuradi asta,  
Suvda suzishga usta.  
Qo'shiqlari g'oq, g'oq, g'oq,  
Oyog'ida jun paypoq.



Uy hayvonlari va parrandalarini ajratib ko'rsating.



## YOVVOYI HAYVONLAR



Yovvoyi hayvonlar o'rmon, tog', cho'l, dasht, daryo va dengizlarda yashaydilar. Ularning ba'zilari o't-o'lalar, don-dunlar va mevalar bilan oziqlanadi. Ya'ni ularning oziqasi o'simliklardir. Ayrimlari esa boshqa hayvonlarni ovlab kun kechiradi, ya'ni ular yirtqichlardir.



Hayvonlarning nomlarini ayting.


O'simliklar bilan oziqlanadiganlar



Yirtqichlar



Hayvonot dunyosida ham o'simlik, ham jonivorlar bilan oziqlanadiganlari mavjud.



1. Rasmlardagi ertaklarning nomlarini bilasizmi?
2. Bu ertaklarda qanday hayvonlar qatnashgan?



Yovvoyi hayvonlarni toping.



Hayvonlarning nomlarini ayting. Ular haqida nimalarni bilasiz?



1



2



3



## QUSHLAR



Qanotlari va patlari bor jonivorlar qushlar deb ataladi. Qushlarning aksariyati don, o'simlik va mevalar bilan oziqlanadi. Ular hasharotlarni, qurt-qumursqalarni ham yeydilar. Lekin burgut, lochin kabi yirik qushlar mayda hayvonlar va qushlarni ovlab oziqlanadilar. Suvda baliq ovlaydigan qushlar ham bor.



Oddiy so'zga aylanar tili,  
Qafasni xush ko'rmas dili.




Qushlarning nomlarini ayting.





Qaldirg'ochlar ko'pincha uylarning peshtoqlariga uya qurib yashaydilar. Lekin ular uy parrandalari emas.

Bedana uyda boqiladi. Lekin u yovvoyi holda ham uchraydi. Bulbul eng yoqimli sayraydigan qushdir. Tuyaqush ucha olmaydi. U juda tez yuguradi.



1. Rasmlardagi ertaklarning nomlarini ayting.
2. 3-rasmdagi uchar ajdarhoni va 4-rasmdagi uchar otni qush deb atasa bo'ladimi?



## HASHAROTLAR



Hasharotlar mayda jonivorlardir. Ularning ko'pchiligini siz uyingizda, ko'chada, bog'larda va ariq bo'ylarida uchratgansiz.




Rasmlardagi libos va matolar pilladan olinadi.

Ipak qurti tut daraxti barglarini yeydi. Kishilar bu qurtlarni boqib pilla oladilar.



Kishilar asalarilardan asal oladi. Demak, ayrim hasharotlar kishilarga foyda keltirar ekan.





Chigirtka, may qo'ng'izi kabi hasharotlar zararli hisoblanadi. Lekin ularning ham tabiatda o'z o'rni bor.

Hasharotlar kichkina bo'lsa-da, ularning tanasi murakkab tuzilgan.

### Kapalak tanasining tuzilishi


Qanotlari

Ko'kragi

Tanasi

Boshi

Oyoqlari



Qanot qoqib guldan gulga qo'nadi,  
Shu onda-chi guldan gullar unadi.



Hasharotlar nomlarini ayting.



## QISH. YANGI YIL BAYRAMI



Qishda havo juda sovib ketadi.  
Hammayoq oppoq qorga burkanadi.  
Ko'lmaklar usti muzlaydi.



Rasm asosida qish haqida hikoya qiling.



Rasmlar asosida qishda ko'chada yurishning xavfi haqida mulohaza yuriting.



1. Rasmlarga qarab Yangi yil bayrami haqida hikoya qilib bering.
2. Sizning oilangizda Yangi yil bayrami qay tariqa nishonlanadi?



Yashil ko‘ylakni kiygan,  
Yecholmaydi sira ham.  
To‘rt faslda doimo,  
Bir xil ko‘ylakda turar.




Ushbu holatlarning salbiy tomonini  
toping.



## BIZ FOYDALANADIGAN NARSALAR



Rasmdagi kiyimlardan qish, yoz, kuz va bahorgilarini ajratib ko'rsating.



Bu kishilar kiyimlarining ularning mashg'ulotlari bilan qanday aloqasi bor?



Rasmlardagi anjomlardan kim, qayerda va qanday maqsadlarda foydalanishini ayting.

## Tayyor ovqatlar



## Sut mahsulotlari




## Shirinliklar



## Sabzavotlar




## Mevalar



Quyidagilardan qaysilari sabzavot, qaysilari meva?



Rasmlardagi siz foydalanadigan narsalarning ayrimlari boshqalaridan muhimroq deb aytsa bo'ladimi? Nima sababdan?



## BIZNING UY. OSHXONA



Uyingizdagи xonalarning nomlarini bilasizmi? Xonalardagi jihozlardan bilganlaringizning nomlarini ayting.



Rasmlardagi narsalardan qaysilari oshxonada, bolalar xonasida, hovlida turishi kerak?





Akmalning oila a'zolari nima bilan mashg'ul? Ular qanday narsalardan foydalanmoqda?



Atrofimizdagи narsalarni har xil kasb egalari yetkazib beradilar. Ularning mehnatini qadrlash lozim. Atrofimizdagи buyum va jihozlardan ehtiyojkorlik bilan foydalanish bizning burchimizdir.



1. Rasmlardagi kishilar bizga qanday xizmat ko'rsatadi?
2. Ularning mehnatini nima uchun qadrlash kerak?



## GAZ VA ELEKTR JIHOZLARI



Elektr toki uyimizga yorug'lik va issiqlik beradi. Kir yuvganda, dazmol qilganda, uy tozalaganda elektr tokidan foydalanamiz.



1. Elektr jihozlarining nomlarini ayting.
2. Ular nima uchun kerak?



Elektr dazmol, pech, televizorlarni yoqilgan holatda qoldirmaslik kerak. Chunki elektr tarmoqlaridagi nosozlik sabab o't chiqib ketishi va yong'in yuz berishi mumkin.




Bular noto'g'ri



Bular to'g'ri





Rasmlardagi holatlarga o'zingizning tanqidiy munosabatingizni bildiring.

Gaz jihozlaridan faqat katta kishilar foydalanishlari lozim!



Bular noto'g'ri

Bular to'g'ri

Gaz hidini sezsangiz **104** ga, yong'in boshlansa **101** ga qo'ng'iroq qiling!



1



2



3



4



Qaysi holatlarda gaz va elektr asboblaridan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilmoqda?



## KOMPYUTER



Bugungi hayotimizni kompyutersiz tasavvur qilish juda qiyin. Kompyuter orqali o'qish va yozish mumkin. U ish yuritishda beminnat yordamchidir. Kompyuter hisob-kitob ishlarini tez va aniq bajaradi. Uning yordamida o'yinlar o'ynash mumkin.

Kompyuter quyidagi joylarda keng qo'llaniladi:




Ta'lif  
dargohlarida



Ishxonalarda




Savdo  
shaxobchalarida



Kompyuter yordamida boshqariladigan narsalarning nomlarini ayting.

Kompyuter o'yinlarini haddan tashqari ko'p o'ynasangiz:

1. Ko'zingizga zarar;
2. Vaqtingiz zoye ketadi;
3. Darslaringiz qolib ketadi;
4. Ota-onangizni xafa qilasiz.



Ichida g'ij-g'ij bilim,  
Unda hayot yashirin.



Hozirgi kunda odamga o'xshagan kompyuterlashtirilgan robotlar ham yaratilmoqda. Ular xuddi odamga o'xshab harakatlanadi, so'zlashadi va buyruqlarni bajaradi.



1. Rasmlardagi jihozlarning nomlarini toping.
2. Ular qanday vazifalarni bajarishini bilib oling.

1



2



3



4



## BIZNING O'LKAMIZ — O'ZBEKISTON



O'zbekiston go'zal, boy va fayzli diyor. Biz Vatanimiz bilan haqli ravishda faxlanamiz. Ushbu o'lkada yashash biz uchun baxtdir.

O'zbekistonimiz mustaqil davlatdir. Mustaqillik yillarda Vatanimiz chiroy ochdi, yuksaldi, rivojlandi.

Mustaqillik yillarda: Ulkan binolar qurildi.




Zamonaviy korxonalar barpo etildi.



Ta'lim dargohlari qurildi va jihozlandi.





Rasmlar yordamida O'zbekiston tabiatи haqida so'zlab bering.



Toshkent — Vatanimiz poytaxtidir. Ushbu darslikning 4–5-betlaridagi rasmlardan foydalanib, poytaxtimiz Toshkent shahri haqida hikoya qiling.

Rasmlardagi joylarning nomlarini bilib oling. Bu joylarda bolalar nimalar bilan shug'ullanadilar?



## SUV

 Quyosh nuri ta'siri ostida dengiz, daryo va ko'lllar yuzasidan suv bug'lanib bulutlarga aylanadi. Bulutlardan yomg'ir va qor yog'adi. Daryolar suvni tog'lardagi muzliklardan oladi. Kanallar va ariqlar suvni daryolardan oladi. Ekinzorlarni sug'orish uchun suv ariq va kanallardan olinadi. Buloq va quduqlar ham suv manbalari hisoblanadi.





Xonadonda foydalanish uchun suv tozalangan holda yetkazib beriladi.



Suvdan foydalanganda nimalarga e'tibor berish kerak?

Qaynatilmagan suvni ichmang!  
U sog'lig'ingiz uchun zararli.




1. Rasmlardagi holatlarga qarab suv havzalaridagi xavfsizlik haqida nima deya olasiz?
2. Tejamkorlik haqida-chi?



## BAHOR. KISHILARNING BAHORDAGI MEHNATI



 Bahorda tabiat uyg'onadi. Quyosh nuridan qorlar erib ketadi. Daryo va anhorlar suvgaga to'ladi. O't-o'lanlar unib chiqadi. Gullar ochiladi. Boychechak, lola, lolaqizg'aldoqlar ko'zni quvontiradi. Daraxtlar kurtak ochadi va barg yozadi. Uzoq o'lkalardan qushlar uchib kela boshlaydi.



Rasmlarga qarab bahor darakchilari haqida kichik hikoya tuzing.



Bahorda asalarichilar o'z asalarilarini gullagan bog'lar va dalalarga olib chiqadilar. Daraxt va gul ko'chatlari ekila boshlaydi. Dalalarda bahorgi ishlar avj oladi.



Rasmlarga qarab bahor va bahorgi ishlar haqida hikoya tayyorlang.



## NAVRO'Z



1. Navro'z qanday bayram?
2. Bunday manzara sizga tanishmi?
3. Sizning oilangizda, mahallangizda va maktabingizda Navro'z bayrami qanday nishonlanadi?



«Navro‘z kayfiyati» degan iboraning mazmunini rasmlarga qarab izohlang.



Taomiman Navro‘zning,  
Umidiman rizq-ro‘zning.  
Doshqozonda pishaman,  
Goh ko‘pirib toshaman.  
Ijobat bo‘lar tilak,  
Pishirsa kim ...



Navro‘z bayrami haqida hikoya tayyorlang.



1



2




3



## MENING SHAHRIM (QISHLOG'IM)



Akmal hikoya qiladi: «Men katta va chiroyli shaharda yashayman. Uning ko'chalari keng, binolari ko'rakam, mahallalari oboddir. Biz shahardan oqib o'tadigan anhorda cho'milamiz. Mening shahrimda bolalar va kattalar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan».



Bahodir esa o‘z qishlog‘i bilan faxrlanadi. U: «Mening qishlog‘im shaharlardan qolishmaydi», – deydi.




4–5-betlardagi rasmdan shahar va qishloq uylarini ajratib ko‘rsating.

Rasmning qishloq qismini tavsiflang.

Rasmning shahar qismini tavsiflang.




Rasmlar asosida hikoya tayyorlang.



## TABIAT VA BIZ



«Tabiat bilan oshno» degan ta'rif quyidagi rasmlardagi bolalarga va kattalarga mos keladi:



O'lkamiz tabiat in'omlariga juda boy. Bepoyon qir-adirlar, go'zal bog'-rog'lar, maftunkor tog'lar, tiniq suvlar kishilarni doimo o'ziga chorlaydi. Kishilar bu xushmanzara joylarga sayohatga chiqadilar va rohatlanib dam oladilar. Vatanimiz tabiatini asrash va saqlab qolish bizning burchimiz hisoblanadi.



Egri-bugri tuyalar,  
Bir-biriga suyalar.  
Qotib turar yil sayin,  
Bag'rida xazina, sir.



4–5-betlardagi rasmdan foydalanib tabiat manzarasini tavsiflang.



Tabiat qo'yniga sayohat davrida nimalarga e'tibor berish zarur?



Bu to'g'ri



Bu noto'g'ri



Rasmga qarab daraxtni qanday parvarishlash kerakligi va uning meva berguniga qadar kuzatiladigan jarayonni so'zlab bering.



«Tabiatga oshno» bo'lgan bola qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz? Bu haqida yozing.



## YASHIL DORIXONA



Yurtimiz dorivor o'simliklarga boy. Ularning ayrimlari tog'larda, o'rmonlarda, dasht va cho'llarda yovvoyi holda o'sadi. Ba'zi turdag'i dorivor o'simliklar esa dala va bog'larda odamlar tomonidan yetishtiriladi.

Ko'proq yovvoyi holda uchraydigan yalpix, qichitqio't, moychechak, gulhayri kabi o'simliklar ko'plab dardlarga davodir.



Rasmlardagi dorivor o'simliklarning nomlarini ayting.



Anor juda mashhur dorivor o'simlikdir. Anorning mevasi, barglari va hatto po'stlog'i ham dori hisoblanadi.



Malina, qizil va qora qorag'atlarni xalqimiz murabbo qilib dori sifatida ishlatadi.






1. Rasmlardagi dorivor o'simliklarning nomlarini ayting.
2. Asalning dorivorlik xususiyatlarining sababini 2-rasmga qarab aytib bering.



Meva va sabzavotlar vitaminga boy bo'ladi. Shuning uchun ham ularni ko'p iste'mol qilish sog'lig'ingiz uchun foydalidir.



Rasmlardagi o'simliklarning nomini bilib oling. Ularning dorivorlik xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plang.



## YOZ



Yozda havo juda isib ketadi. Kunlar uzun, tunlar esa juda qisqa bo'ladi. O'quvchilar yozgi oromgohlarda dam oladilar.



Rasmdagi bolalar nima bilan mashg'ul?





Rasm asosida bolalarning yozgi o'yinlari haqida so'zlab bering.



«Yoz noz-ne'matlari» iborasining ma'nosini yuqoridagi rasmlardan foydalanib tushuntiring.



Bolalarning yozdagи faoliyati haqida hikoya tayyorlang. Bunda rasmlardan foydalaning.



## KISHILARNING YOZDAGI MEHNATI



Bahorda ekilgan sholi, bug'doy kabi don ekinlari ayni yozda pishib yetiladi. Ularni o'rib, yig'ib oladilar.





Bog'larda ayrim mevalar g'arq pishadi. Dalalarda sabzavotlar va poliz ekinlari yetiladi. Dehqonlarimiz bu noz-ne'matlarni siz va bizga yetkazish uchun tinimsiz mehnat qiladilar.



Siz ham ta'tilda kattalarga yordam berasizmi?

Yoz paytida serob bo'lgan xilmalil sabzavotlar va mevalarni kishilar qayta ishlaydilar. Qish paytida esa bu konservalangan mahsulotlarni maza qilib iste'mol qiladilar.



Rasmlar asosida kishilarning yozdag'i mehnati haqida hikoya tayyorlang.



**Nopiyaxon Olimbekovna Mamadinova  
Muazzamxon Axmariddinovna Ahmedova**

**ATROFIMIZDAGI OLAM**

Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining  
1-sinfi uchun darslik

*Original-maket «Huquq va Jamiat»  
dizayn studiyasida tayyorlangan*

Toshkent — «O'ZBEKISTON» NMIU — 2016

Muharrir — T. Mirzayev

Texnik muharrir — B. Karimov

Musahhih — D. Husanova

Rassom — N. Jo'raboyev

Badiiy muharrir — H. Qutluqov

Sahifalovchi — «H&J» ijodiy guruhi

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 25.07.2016. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/16.  
«Arial» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 4,66.  
Nashr bosma tabog'i 4,76. Nusxasi 555 224. Buyurtma № 16-376.

**«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.**

**Mamadinova, N.**

**M23 Atrofimizdagi olam: Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining 1-sinfi  
uchun darslik / N. O. Mamadinova, M. A. Ahmedova. — T.:  
«Huquq va Jamiat», «O'zbekiston» NMIU, 2016. — 64 b.**

**N. Mamadinova.**

**UO'K 502.3(075.2)  
BBK 20.1ya71**